ISSN 2181-4589

NAMANGAN
MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2024 №1

- Avtomobil yo'llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar
- Transport muhandisligi
- Texnika va texnologiya
- Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt
- Energetika va muqobil energiya manbaalari
- Ta'limda zamonaviy texnologiyalar

nammqi_info@edu.uz

Namangan shahar, Islom Karimov ko`chasi 27-uy

ISSN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2024 №1

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ НАУКИ, ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT

NAMANGAN-2024

2024 yildan nashr etiladi.
Yiliga 6 marta chop qilinadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024 yil 17-dekabrdagi № 522134 raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT ILMIY JURNALI TAHRIR HAY’ATI

Bosh muharrir: **SH.SH.JO‘RAYEV**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **D.I.MAXKAMOV**
Mas’ul kotib: **M.A.TUXTABAYEV**

Avtomobil yo‘llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar:

Akademik S.S.Negmatov (TDTU “Fan va taraqqiyot” DUK), q.s.f.d. dots. B.K.Duysenbekov (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.d., prof. R.X.Soliyev (NamMQI), t.f.n.,dots. Q.M.Inoyatov (NamMQI), t.f.n.,dots. Sh.A.Xalimov (NamMQI), t.f.f.d. M.B.Boytemirov (NamMQI).

Transport muhandisligi:

t.f.d.,prof. D.V.Kapskiy (BMTU), I.f.d., prof. R.B.Ivut (BMTU), t.f.n.,dots. J.Xolmirzayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots. M.B.Boydadayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots. Z.T.Munavvarxonov (NamMQI), t.f.n.,dots.A.R.Normirzayev (NamMQI).

Texnika va texnologiya:

t.f.n., k.i.x. A.L.Zhaludkevich (NAS of Belarus), t.f.n., k.i.x. O.F.Demidenko (NAS of Belarus), t.f.d., prof. V.M.Turdaliev (NamMQI), t.f.d.,dots. X.G.Abdulxayev (NamMQI), t.f.n.,dots. A.D.Nuriddinov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. B.A.Xatamov (NamMQI), t.f.n.,dots. S.T.Qodirov (NamMQI), t.f.f.d, dots. R.X.Murodov (NamMQI).

Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt:

Q.s.f.d., dots. K.S. Dosaliyev (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.n.,dots.T.M.Jo‘rayev (NamMQI), t.f.n.,dots.A.A.To‘xtabayev (NamMQI), t.f.f.d., dots.S.R.Komilov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. Z.N.Mamadjanov (NamMQI).

Energetika va muqobil energiya manbalari:

T.f.d., prof. G.A.Govor (NAS of Belarus), f.m.f.d., prof.M.G‘.Dadamirzayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots.F.F.Sharipov (NamMQI), t.f.n.,dots. M.X.Murodov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. E.X.Berkinov (NamMQI).

Ta’limda zamonaviy texnologiyalar:

Dr. Ahmed Akhlahan (Jawaharlal Nehru Universiteti), t.f.d., prof. B.E.Sultonov (NamDU), p.f.d., prof. O.S.Abdullayeva (NamMQI), p.f.d., prof. T.I.Ismoilov (NamDPI), , t.f.f.d., dots. G‘.N.Sharifov (JizDPU), p.f.f.d.dots. P.Botirova (NamMQI), t.f.f.d.,dots. M.X.Dadamirzayev (NamMQI).

Muharrirlar: X.M.Soliyev, Z.X.Isoqova, G.F.Valiyeva
Texnik muharrirlar: A.Xamzayev, M.M.Ergashev, M.Z.Muxtarov

MUNDARIJA

AVTOMOBIL YO‘LLARIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA TADQIQOTLAR

1 Хамидов А. Автомобил йўлларини цементобетон қопламалар асосида ташкил этиш ……. 6
2 Valiyeva G.F., Abbasova N.B. Sanoat chiqindisi va mineral xomashyolar asosida kompozision elektrokeramika materiallarining olish texnologiyasini yaratish…… 9

TRANSPORT MUHANDISLIGI

3 Azimov I.S., Sidiqov O.A., Mahmudov J.N. Shahar jamoat transportini rivojlantirish uchun fundamental tadqiqot olib borish…… 15
4 Пайзиев Г.К. Определение силы прижатия ботвы лопастями ботвоприжимного битера …… 22
5 Ataxanov X., Xidirov U., Mirsaidov B. Yo‘l transport hodisalaridan ko‘rilgan zararlar …….. 26
6 Эшанбабаев А.А., Нумонжонов А.Х. Использование совершенствованных методов обеспечения безопасности движения на горных дорогах…… 31
7 Хамзаев А.А., Юнусханов Д., Матёқубов Д. Разработка и испытания самоходной машины для комбинированной уборки картофеля и остаточного пластика…… 37
8 Абдуганиев Ш.О., Акбаров Ш.Б., Усмоналиев Ж.Х. Движение на перекрестках в Республике Узбекистан …… 41
9 Адилов О.К., Мухаммадиев З.Т., Абиров Б. Оценка вредных выбросов автотранспорта на автомобильных дорогах……. 45
10 Mamajanov Sh. Paxta regeneratorining samaradorligini aniqlash…… 48
11 Насриддинов А.Ш., Рахимкулов Ф.С. Принятие мер по обеспечению безопасности пешеходного движения вокруг торговых рынков, расположенных на территории города наманган и его оценка…….. 55
12 Nasriddinov A.Sh., Raximqulov F.S. Yo’l harakatini tashkil etishning texnik vositalarni harakatni tashkil etishda samaradorligini baholash usullari…… 59
13 Boymirzaev Q.Y., Madraximov A.M.Transport vositasining yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lganida harakat tezligini aniqlash …… 64

TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA

14 Валиев Н., Хакимов С., Нуритдинов Ж., Хамидов А. Куйдирмай олинадиган ғишт хоссаларини тадқиқ қилиш…… 69
15 Dekhkonov U. Aerodynamic description of vertical axis rotor construction…… 72
16 Демиденко О.Ф., Желудкевич А.Л., Абдулхаев Х.Г., Мансуров М.Т., Касымов К.З. Методы получения модифицированных сталей с повышенной прочностью, перспективных для применения при изготовлении деталей почвообрабатывающих машин…… 79
17 Jumanova M.S. Harmful factors in production processes and ways of protection against them…….. 83
18 Isomidinov A.S. Gidrosiklonning gidravlik qarshiligini tadqiq etish…… 88
19 Холмирзаев Ж. З. Периодических режимов движения летучек в рабочем органе очистителя хлопка…… 93

TARAQQIYOT STRATEGIYASI: AQLLI SHAHAR, RAQAMLI IQTISODIYOT, SUN’IY INTELLEKT

20 Семашко Е.А., Лапковская П.И. Модель развития цифровой трансформации транспортно-логистической деятельности …… 99
21 Богданович С.В., Бойдадаев М. Обзор принципов и технологий создания

безопасной и комфортной дорожной среды путем развития «умных дорог» в рамках концепции «Vision Zero»..…… 102
22 Капский П.Д. Исследование концепции дискретно-событийной логистической системы (dels) в условиях цифровизации……. 105
23 Tuxtabayev M.A., Dadabayev D.R. Namangan shahrining shahar ichi tezkor yo‘lovchi avtobuslarida tashishni tashkil qilish …… 108

ENERGETIKA VA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI

24 Жураев Ш.Ш., Ахатов Д. Логон бентонит гелийнинг сув ўтказувчанлиги таҳлили…….. 112
25 Алиназаров.А.Х., Атамов А.А., Салимжанов Ж.Х. Способ приготовления водного раствора добавки в бетонную смесь с использованием солнечной энергии.…… 118
26 Алиназаров А.Х., Атамов А.А., Салимжанов Ж.Х. Особенности получения многокомпонентных строительных материалов и их модификация химическими добавками с использованием альтернативных источников энергии…….. 122

TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

27 Ганчерёнок И., Горбачёв Н., Рустамов Р. Системный подход к формированию межнационального образовательного контента …….. 127
28 Parpiyev O.T., Ergashaliyev B.B., Zuhriddinov I.B. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari…….. 132
29 Insomiddin B.N., A`zamov Q.S., Abdulhayev M.A. Smart oliy ta`lim muassasa tamoili va afzalliklari hususida.……. 135
30 Isaboyev Sh.M. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda smart ta`lim-smart muassasa tamoilini ahamiyati hususida.……. 138
31 Xushnayev O.A. Bo‘lajak muhandis-o‘qituvchilarni ijodiy loyihalash faoliyatiga tayyorlashning tadqiqot metodologiyasi…… 141
32 Xakimov A.A. Texnika oliy o‘quv yurtlarida talabalar dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning o‘rni…….. 144

АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИНИ ЦЕМЕНТОБЕТОН ҚОПЛАМАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ

проф., А.Хамидов
Наманган муҳандислик-қурилиш институти
adxamjon1954@gmail.uz

Аннотация: мақолада автомобиль йўллар қурилишида цементобетон қопламаларни қўллаш бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижалари келтирилган.

Аннотация: в статье приведены результаты исследований по применению цементобетонных покрытий при строительстве автомобильных дорог.

Таянч сўзлар: автомобиль йўллар, цементобетон, қоплама, киритилган ҳаво, таркиб, пластификатор, полиэтилен плёнка.

Ключевые слова: автомобильные дороги, цементобетон, покрытие, введеённый воздух, состав, пластификатор, полиэтиленовая плёнка.

Йўл қопламалар ишончлилиги, ишлаш қобилияти ва мустаҳкамлигига қуйиладиган талаблар - транспорт воситалар юк кўтариш миқдорини ошиши ва йўллардаги ҳаракатлар интенсивлигига боғлиқ.

Бетонли қопламалар, сифатли, технология талабларига риоя қилган ҳолда ётқизилган бўлса ва тўғри эксплуатация қилинса (чокларни вақти-вақти билан тиклаш, ёриқларни майда таъмирлаш ва ш.к.), биринчи 10-12 йил эксплуатациясида таъмир ишларини талаб қилмайди ва 50 йил ва ундан кўп вақт хизмат қилиши мумкин. Шунинг учун, бугунги кунда йўл қопламаларида цементобетондан фойдаланиш энг самарали усулдир [1].

Цементобетон қопламаларнинг қурилиш амалиёти шуни кўрсатадики, у ёки бу дефектларнинг ҳосил бўлишини олдини олиш жуда мураккаб ва улардан тўла қочиб бўлмайди. Ёриқлар ҳосил бўлишига, тоб ва пўст ташлашига таъсир этадиган кўплаб омиллар мавжуд. Таъкидлаш лозимки, у ёки бу дефектлар ва бузилишлар ҳосил бўлиши сабаблари, кўп холларда бир неча омилларни биргаликда бир вақтда таъсир этишидир. Ёриқлар ва бошқа дефектлар ҳосил бўлишига асосий сабаблар қуйидагилар бўлиши мумкин [2]:

- Бетон қоришмаси таркибини нотўғри танлаш;
- Бетон қоришма тайёрлашдаги бузилишлар;
- Қурилиш шароитлари яхши эмаслиги, бетон қоришмасини ётқизиш технологясини бузилиши ва эксплуатация шароитлари ноқулайлиги.

Бетон сифатини яхшилаш учун ҳавотортувчи қўшимчалар киритиш талаб этилади.

Бетонга ҳавони киритишнинг асосий мақсади – навбатма-навбат музлаш ва эриш шароитида, унинг совуққа чидамлилигини ошириш, шунингдек, қопламанинг юза қисмини тузга чидамлилигини ва турғунлигини таъминлашдир. Қўшимчаларни қўллаш, бетонни юзасини бузилишга қаршилик кўрсатиш қобилиятини яхшилайди. Лекин, бетон қоришмасида ҳавотортувчи қўшимчаларни қўллаш, бетонга киритилган ҳаво ҳажмига пропрорционал равишда бетон мустаҳкамлиги камаяди.

Тадқиқотлар натижаларига кўра, ҳар бир киритилган ҳаво фоизига мос равишда: сиқилишга бўлган мустаҳкамлик 3-5,5%, чўзилишдага эгилиш мустаҳкамлиги 2-3% га ортиши мумкин.

Бетон қоришмасига киритилган ҳаво, ташишда ва зичлашда сеграция (йирик зарраларни бўлиниши) хавфини камайтиради, лекин бу усулни қоришмани қатламланишини тўла олдини оладиган асосий усул деб бўлмайди.

Демак, талаб этилган ҳаво миқдорини таъминлаш учун ҳавотортувчи қўшимчалар сарфи С/Ц нисбати, қоришмадаги қум ва унинг зарравий таркиби ва бошқа омилларга мос равишда ўзгартирилиб туришлиши керак [3].

Бетон ва бетон қоришмасининг хусусиятларини бошқариш учун унинг таркибига кимёвий қўшимча аралаштирилиб, бетон қоришмасининг қотиши тезлаштирилади ёки секинлаштирилади, уни анча пластик ва қулай қуйилувчанлиги оширилади, қотиш жараёни тезлаштирилади, унинг мустаҳкамлиги ва совуққа чидамлилигини кўтарилади. Зарур ҳолларда бетон хусусиятлари бошқа йўналишда ўзгартирилади.

Охирги йилларда бетон қоришмаси ҳаракатчанлигини ошириш учун кенг қўлламда пластикловчи қўшимчалар - суперпластификаторлар ишлатилмоқда. Суперпластификаторлар – кўп компонентли универсал қўшимчалар, улар бетон қоришмаси ҳаракатчанлиги (ёйилувчанлиги) ни кескин оширади ва интенсив қотиш суръатини ошириб, бетонни талабда (лойиҳада)ги мустаҳкамлигини олишини таъминлайди. Оддий пластификаторларга нисбатан суперпластификаторлар қўлланилганда, бетон қоришмаси оқувчанлик кўрсаткичи анча юқори. С-3 суперпластификаторини қўллаш, бетон қоришмаси сув талабчанлигини 10-20% га камайтиради (сув-цемент нисбати const. бўлиши сабабли цемент сарфи ҳам камаяди) ва бетон қопламани ишлаш даврини икки-уч маротаба оширади.

Сифат кўрсаткичлари: боғланиш муддати, майдалиги, цемент-қум қоришмасининг ёйилувчанлиги (ҳаракатчанлиги), гидрофоблик, сув ўтказмаслик, сульфатга бардошлилик, совуқбардошлилик, оловга бардошлилик, коррозияга бардошлилик, клинкер таркибида эркин кальций оксиди, эримайдиган қолдиқлар, қуйдирилганда масса йўқотиши кўрсаткичлари тавсия этилган хисобланади.

Янги турдаги цементлар учун норматив хужжатлар ишлаб чиқишда тавсия этилган сифат кўрсаткичлари мажбурий қилиб белгиланиши мумкин.

Ҳозирги кунда Республика ҳудудида ишлаб чиқарилаётган ёки импорт асосида олиб келинган цемент боғловчи материалларининг сифатсиз ва сохталаштирилишининг асосий омилларлари, ҳамда бетон маҳсулотларининг талаб этилган мустаҳкамлигини таъминланмаслигининг сабаблари қуйидагилардан иборат:

- Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган цементни етказиб берувчи тадбиркорлар томонидан аввалдан кўп миқдорда сотиб олиб, сақлаш қоидаларини қўпол тарзда бузилиши оқибатида сифатини йўқотилиши ёки сотиб олинган маҳсулотга цемент чанги, кул ва тоғ жинсларини майдалаб қўшиб сохталаштирилиши.
- Ишлаб чиқарувчиси номаълум, мувофиқлик сертификати ва сифатини тасдиқловчи хужжати(паспорти) бўлмаган ёки юридик жавобгар бўлишга ва етказилган зарарни қоплашга лаёқати бўлмаган тасодифий шахслардан арзон нархларда цемент сотиб олиниши;
- Қурилиш объектларида стандартга мувофиқ келмайдиган сифатсиз тўлдирувчилар (қум, чақиқтош) қўлланиши, бетон ва бошқа қоришмалар таркибини (рецептураларни) лаёқатли лабораториялар томонидан амалга оширмасдан ўзбошимчалик билан белгиланиши, қурилиш технологиясини бузилиши, яхлит бетон конструкцияларни парваришлашни амалга оширмаслик натижасида конструкциянинг мустаҳкамлиги таъминланмаслигини – асоссиз равишда цементни сифатсиз дейилиши;
- Лабораторияларнинг аккредитация ва аттестация шаҳодатномасида цемент сифатини текшириш кўрсатилган бўлсада, аслида цемент сифатини баҳолашга лаёқати етарли эмаслиги;
- Давлат архитектура ва қурилиш назорати инспекциялари томонидан ўтказилаётган назоратнинг самарасиз эканлиги;

➢ Бетон қоришмалари ишлаб чиқариш заводларида лаёқатли лабораториялар мавжуд эмаслиги, дозировка қилишда четланишлар катталиги ёки рецептурага амал қилинмаслиги, сифатсиз, лойсимон ва чангсимон зарралари кўп бўлган тўлдирувчиларнинг қўлланилиши, материалларни, шу жумладан цементни сақлаш қоидаларига риоя этилмаслиги.

Кам цемент сарфлаб сифатли бетон ва бетон қоришмасини тайёрлаш учун, аввало унинг таркибини тўғри ҳисоблаш зарур. Бунинг учун бетон таркибини ташкил қилувчи материалларни сифатига қараб танлаш ва миқдорини аниқлаш керак. Бетон таркибини ҳисоблашдан аввал унинг таркибидаги материаллар (цемент, қум, шағал ва бошқалар) лабораторияда синаб, уларнинг сифатини аниқловчи стандарт кўрсаткичлардан ташқари, зичлиги, ва йирик тўлдирувчидаги бўшлиқ аниқланади.

Ўз. РСТ 679-96 «Бетон таркибини танлаш» стсндартига мувофиқ, бетон таркиби берилган вазифага асосан иккита вариантда ҳисоблаб чиқилди [4].

Ўтказилган тадқиқотлар натижаларига кўра, қўйидагилар аниқланди:

➢ Бетон қоришмаси ҳаракатчанлиги аниқланди. Бетон қоришмаси таркибига К-12 ҳаво тортувчи қўшимча қўшилди. Тадқиқотлар натижаларига кўра, ҳар бир киритилган ҳаво фоизига мос равишда: сиқилишга бўлган мустаҳкамлик 3-5.5%, чўзилишдага эгилиш мустаҳкамлиги 2-3% га ортиши мумкин.

➢ Бетон сифатига пластикловчи қўшимчалар таъсири аниқланди. Бетон таркибига суперпластификатор С-3 кимёвий қўшимчаси қўшилганда бетон сув ўтказувчанлиги қўшилмасиз намуналарига нисбатан 50 %га камайган. Бетонинг сув ўтказувчанлиги пасайишини қоришмаларни ёйилувчанлиги яхшиланиши ва чўкиш деформатсияларни камайиши билан асослаш мумкин.

➢ Синовлар натижаларига кўра автомобил йўллари цементобетон қопламали каби катта очиқ майдонга эга намуналарда (60х60х30см^3) 1 суткадан сўнг мустаҳкамлиги 11,7 МПа ёки назорат намунагга нисбатан (нормал шароитда қотган 28 кунлик бетон намунаси мустаҳкамлигига нисбатан) 60% ни ташкил этди. Қаровсиз (плёнкасиз) намуналар мустаҳкамлиги 1 суткадан сўнг, 6.3 МПа ни, 28 суткадан сўнг 14.7МПа ни ёки нормал шароитда қотган намуналар мустаҳкамлигига нисбатан 59% ни ташкил этди.

➢ Полиэтилен плёнка остида қотган бетон намунасини музга чидамлилиги нормал шароитда қотган бетон намунасини музга чидамлилигига яқин. Плёнка қопламасиз намуналар музга чидамлилиги 75 циклни ташкил этди холос.

➢ Полиэтилен плёнка остида қотган бетон намунасида цемент тошининг тўлдирувчи билан контакти зич. Полиэтилен плёнка остида қотган бетонда ғоваклар намуна кесими баландлиги бўйича бир текисда тақсимланган, сферик шаклдаги йирик ғоваклар мавжуд. Бу бетонни яхши шаклланган тузилиши, уни юқори мустаҳкамлик кўрсаткичларини белгилайди.

Хулоса. Цементобетон қопламалар сифат, мустаҳкамлиги, чидамлилиги ва кўрсаткичлари бўйича асфальтобетонга нисбатан юқори. Эксплуатациясида, таъмир ишларини талаб қилмайди ва 50 йил ва ундан кўп вақт хизмат қилиши мумкин. Наманган вилояти “Қамчиқ” девони автомобиль йўллари қурилишида цементобетон қопламалар қўлланилиши – йўллар халқаро стандартларга жавоб беришини кўрсатди. Шунинг учун, йўллар қурилишида, самарали цементобетон қопламалар қуриш ҳажмини ошириш зарур.

Адабиётлар:

1. А.И.Хамидов, Р.Х.Сулайманов. Цементбетон қопламали автомобиль йўлларни сифатини таъминлаш долзарб масалалари/ Монография. – Тошкент: Lesson press, 2020. – 202 б.

2. А.И.Хамидов, Н.Э.Шарибаев. Куруқ иқлим шароитида эксплуатация қилинадиган йўл қурилиши учун цементобетонларнинг оптимал таркибини танлаш ва физик - механик хоссаларини тадқиқ қилиш/ Монография. – Тошкент: Lesson press, 2023. – 156 б.
3. Н.Э.Шарибаев, А.И.Хамидов, И.Г.Ахмедов, Автомобиль йўлларининг қурилишида ва уни ташкил этишда чет эл тажрибаси/ Монография. – Тошкент: Lesson press, 2022. – 126 б.
4. Ўз. РСТ 679-96 «Бетон таркибини танлаш»
5. “Қуруқ иссиқ иқлим шароитида қотаётган бетон парвариши учун полимер плёнкаларни қўллаш бўйича қўлланма”. – Тошкент, 2007.

SANOAT CHIQINDISI VA MINERAL XOMASHYOLAR ASOSIDA KOMPOZISION ELEKTROKERAMIKA MATERIALLARINING OLISH TEXNOLOGIYASINI YARATISH

Valiyeva Gulshan Fayzimuradovna
Namangan muhandislik-qurilish instituti, dots.
gulshanvaliyeva@mail.ru
Abbasova Nodira Baxodirovna
Namangan muhandislik-qurilish instituti, stajor o‘qituvchi
nodira180281@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy mineral xom ashyolar va sanoat chiqindisi asosida elektrokeramika materiallarini tarkiblarini yaratish va olish texnologiyasi natijalari keltirilgan. Mineral xom-ashyolar va sanoat chiqindisi asosida kompozitsion elektrokeramika materiallarning tarkibi va olish texnologiyasini yaratishdan iborat. Zamonaviy fizik-kimyoviy analiz usullari, jumladan, rentgenfazali analiz (RFA), petrografik, elektron-mikroskopik, differensial termik tahlillar va boshqa standart taxlil usullaridan foydalanilgan. Elektrokeramika tarkibi mahalliy mineral xomashyo: kaolin, leykokratli granit, talk, bentonit, glinozemli sanoat chiqindisidan foydalanib pishirish haroratini standartga nisbatan 50°C ga kamaytirish imkonini berishi aniqlangan, bu yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash va tayyor mahsulot tannarxini kamaytirishi asoslangan. Elektrokeramika materiallarini pishirish haroratini etalon massaga nisbatan 50^0S ga kamayishiyonilg‘i energetik resurslarni tejash vasanoatning xom-ashyo bazasini kengaytirish hamda tayyor mahsulotning tannarxini 23% ga kamaytirishi asoslandi.

Abstract. This article presents the results of the technology for creating and obtaining compositions of Electroceramic materials based on local mineral raw materials and industrial waste.

Keywords: bentonite, talc, physico-chemical texture, electroceramics, kaolin, leukocrete granite, talc, bentonite, glinosem industrial waste.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda elektrokeramika materiallari energetika, mashinasozlik, elektrotexnika, neft-kimyo, metallurgiya va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shu munosabat bilan dunyoda elektrokeramika sanoatining rivojlanishi alohida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, elektrotexnikada ishlatiladigan kompozitsion elektrokeramika materiallari va mahsulotlariga bo‘lgan talab jadal o‘sib bormoqda. Shu jihatdan elektr mashinalari va mexanizmlarining ishchi organlari uchun kompozitsion elektrokeramika izolyasion materiallarini ishlab chiqarish uchun samarali va energiya tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Jahon miqyosida yuqori fizik-mexanik, dielektrik va yuqori chastotali izolyasion xossalarga ega bo‘lgan elektrokeramika materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, elektrokeramik materiallar va ularga asoslangan mahsulotlarning samarali tarkiblarini olish usullarini yaratish, ularning fizik-kimyoviy, texnologik va ekspluatatsion xossalarini o‘rganish, resurstejamkor olish texnologiyasini ishlab chiqish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda oxirgi yillarda kimyo sanoati korxonalarini modernizasiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar turlari va hajmini kengaytirish, mahaliy xomashyo va korxona chiqindilaridan keramik materiallar ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida «...sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish...» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, mahalliy xomashyo va glinozemli sanoat chiqindisi asosida yuqori keramik-texnologik va dielektrik xossalarga ega bo‘lgan kompozision elektrokeramika materiallarning tarkibi va olish texnologiyasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi №PQ-4426-son «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlariningi ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperasiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas’uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida»gi, 2020-yil 15-martdagi №PQ-6079-son «Raqamli O‘zbekiston-2030» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Metodlar. Elektrokeramik materiallarni ishlab chiqishda plastik va qaynoq quyish usullari keng qo‘llaniladi. Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, ushbu ishda plastik usulida qoliplashdan foydalanilgan.

Sinov namunalarining shixta tarkiblarini aniqlashda adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar va boshlang‘ich xomashyo materiallarining kimyo-mineralogik tarkibiga asoslanilgan.Sinov namunalarining shixta tarkiblari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Elektrokeramik kompozision massaning shixta tarkibi

Komponentlar nomlanishi	Massa indeksi					
	KK-1	KK-2	KK-3	KK-9	KK-12	KK-13
Angren kaolin	40	42	45	46	47	48
“Высотное ” leykokratli granit	32	30	28	22	20	18
“Сыпки” dolomiti	14	10	8	12	14	16
shurtangaz-kimyo kompleksi glinozemli chiqindisi	6	8	10	8	10	12
Qoraqalpoq talki	8	9	6	5	4	3
Kattarqo‘rg‘on bentoniti	2	2	2	4	4	4
$BaCO_3$	1	1	1	1	1	1

Pishirish jarayonida talk tarkibidagi namliknining kamayishi hisobiga massaning jadal qisqarishi hosil bo‘ladi. Massaning jadavl qisqarishini oldini olish uchun talkni boshlang‘ich pishirish jarayoni amalga oshirildi. Glinozem tarkibli chiqindidan ham metall qoldiqdari va xromni yo‘q qilish maqsadida boshlang‘ich pishirish jarayoni o‘tkazilgan.

Buning uchun talk va glinozem tarkibli chiqindi 1-2 mm o‘lchamgacha maydalangan so‘ngra laboratoriya pechida 1350^0S da pishirilgan.

Sinov namunalari laboratoriya sharoitida plastik massalardan qoliplash usulida tayyorlangan va1250, 1300, 1350, 1400^0S haroratda pishirilgan.

Elektrokeramik materiallarning pishish jarayoni massa tarkibi, boshlang‘ich komponentlarning kimyoviy tarkibi, pishirishda sodir bo‘ladigan fizik-kimyoviy jarayonlar, dielektrik va keramik-texnologik xususiyatlarning o‘zgarish xarakteri kabi ko‘pgina omillarga bog‘liq.

Natijalar. Elektrokeramik kompozisiyalarning pishish jarayoni qisman, ya’ni pishish haroratiga bog‘liq ravishda keramik-texnologik xususiyatlarning o‘zgarish harakaterini aniqlash yo‘li bilan o‘rganilgan, o‘rganishlar natijalari 1 va 2-rasmlarda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Suv shimuvchanlik (1) va olovda qisqarishning (2) KK-12 namuna massasini pishirish haroratiga bog‘liqligi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, pishish harorati oshishi bilan suv shimuchvanligi kamayadi va namunaning olovda qisqarishi ortadi, bunda haroratning ko‘tarilishi bilan shishasimon fazaning miqdori otib boradi va g‘ovaklarni to‘ldiradi, natijada zichlashish va qattiqlashishga olib keladi.



2-rasm. Ezilishga mustahkamlik (1), zichlik (2) va g‘ovaklikning (3) pishish haroratiga bog‘liqligi

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, pishirish haroratining oshishi bilan g‘ovaklik pasayadi va materialning zichligi oshadi, bu yengil eruvchan komponentlarni erishi natijasida hosil bo‘lgan shishasimon faza zarralar orasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi va bu materialning mustahkamligini ortishiga olib keladi.

Keramika-texnologik va dielektrik xossalarini aniqlash usuli bo‘yicha amalga oshirildi, uning natijalari 2 va 3-jadvallarda ko‘rsatilgan.

2 va 3-jadvallardan ko‘rinib turibdiki, mahalliy xomashyolar va glinozemli chiqindilardan foydalanganda, uning miqdori massalar tarkibida ortib borishi bilan mexanik va elektr mustahkamligi, zichligi, hajmli elektr qarshiligi ortib boradi, suv shimuvchanligi va dielektrik yo‘qotish burchak tangensi kamayadi, o‘z navbatida eng yuqori bu ko‘rsatkichlar KK-9, KK-12 va KK-13 massalari tarkibida kuzatiladi.

2-jadval

Elektrokeramik namunalarining keramik-texnologik xossalari

Ko‘rsatkichlarning nomi	Pishish harorati, ^{0}C	Massa indeksi				
		KK-1	KK-2	KK-9	KK-12	KK-13
Ezilishga mustahkamlik, МПа	1250	86,70	95,23	92,38	96,48	94,13
	1300	89,53	97,35	94,17	98,70	96,32
	1350	105,23	108,28	110,2	119,4	112,2
	1400	83,32	94,78	95,37	98,84	96,19
Zichlik, г/см^3	1250	2,30	2,32	2,32	2,36	2,38
	1300	2,44	2,45	2,46	2,48	2,43
	1350	2,48	2,47	2,47	2,51	2,48
	1400	2,44	2,41	2,45	2,43	2,42
Suv shimuvchanlik, %	1250	0,235	0,366	0,386	0,597	0,394
	1300	0,063	0,065	0,061	0,049	0,055
	1350	0,029	0,019	0,018	0,004	0,017
	1400	0,08	0,009	0,12	0,001	0,011
Olovda qisqarishi, %	1250	14,65	12,26	14,82	12,35	14,25
	1300	14,08	14,13	15,34	14,66	14,45
	1350	14,12	14,36	15,48	14,84	14,96
	1400	15,75	14,46	15,56	14,92	15,08

3-jadval

Elektrokeramik namunalarining dielektrik xossalari

Ko‘rsatkichlarning nomi	Pishish harorati,^{0}C	Massa indeksi				
		KK-4	KK-5	KK-9	KK-12	KK-13
Elektr quvvati, кв/мм	1350	27,3	27,2	27,7	28,1	29,2
Dielektrik yo‘qotish tangensi, tgδ·10^{-3}	1350	22	23	22	22	21
Solishtirma xajm elektr karshiligi, ·10^{13} ом·см	1350	5,18	4,31	6,7	5,28	7,2
Dielektrik singdiruvchanlik, 50Гц da	1350	5	6	6	5	7
Haroratga chidamlilik, kamida	1350	169	172	176	182	186

Elektrokeramik materiallarining dielektrik xususiyatlarini qizdirish harorati va elektr tokining chastotasi o‘zgarishiga bog‘liqligi katta ahamiyatga ega, chunki bu materiallar yuqori haroratlarda va chastotalarda ishlaydi.

Ko‘pgina adabiy manbalardan ma’lumki, materiallarning xususiyatlari haroratning oshishi bilan yomonlashadi. Xususiyatlarning yomonlashishi ko‘plab omillarga va ko‘p darajada elektrokeramik materiallarning tarkibiga bog‘liq. Shu munosabat bilan, biz ushbu ishda dielektrik o‘tkazuvchanligi va dielektrik yo‘qotishni hamda solishtirma hajm qarshiligining pishish haroratiga bog‘liqligini o‘rganildi.

Muhokamalar. prof. R.I.Abdullayevaning yaratgan tarkiblari asosan alyaskitlar, andaluzit va kianit xomshyolaridan iborat, prof. Eminov A.M. esa mahalliy homashyolardan foydalanib xo‘jalik farfor idishlari uchun tarkib yaratganlar, Shamuratova Sh.Sh. keramik massa asosan dala shpatlari va keramik chikindi (farforoviy boy)dan iborat, V.Tulyaganova 50-70%gacha talk va kremenzemli chikindi asosida elektrokeramik takrib yaratilgan.

Xulosalar. Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin: elektrokeramik kompozision materiallarni tayyorlashning energiya tejamkor samarali texnologiyasi «Olmaliq KMK» AJ «NMvaQQ» IICHB sharoitida amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq KMK» AJning 2022 yil 24 avgust №AA/006433-son ma’lumotnomasi). Natijada, elektrokeramika materiallarini pishirish harorati etalon massaga nisbatan 50^0S ga kamaytirish hamda yonilg‘i energetik resurslarni tejash imkonini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.М. Мирзиёев. Стратегия развития нового Узбекистана. – Ташкент. Изд.: «O'zbekiston», 2022, - 440 с.

2. Масленникова Г.Н. Электротехническая промышленность // Ж. Всесоюзного химического общества им. Д.И.Менделеева, 1982, №5, 27. С. 546-552.

3. Momma K., Izumi F. VESTA 3 for three-dimensional visualization of crystal, volumetric and morphology data // J. Appl. Crystallogr. 2011. № 44. P. 1272–1276.

4. Эминов А.М., Туляганова В.С., Абдуллаева Р.И., Негматов С.С.. Механизм формирования структуры стеатитового электрокерамического материала // Композиционные материалы, 2017, № 1. - С. 30-32.

5. В.С.Туляганова, Р.И.Абдуллаева, С.С.Негматов, Г.Ф.Валиева, М.О.Туйчиева, Н.С.Абед, С.Т. Баракаева, Н.О.Умирова, Ш.А.Аззамова. Исследование процесса фазообразования керамических композиционных материалов на основе местного сырья // Композиционные материалы, -Ташкент. 2021, №2, - С. 76-81.

6. В.С.Туляганова, Р.И.Абдуллаева, С.С.Негматов, М.О.Туйчиева, Ф.Ф.Шарипов, Г.Ф.Валиева. Исследование процесса спекаемости электрокерамических композиций.// Universum: технические науки. Выпуск: 10(91) Москва 2021. Часть 4. –С. 44-46.

7. В.С.Туляганова, Р.И.Абдуллаева, С.С.Негматов, Г.Ф.Валиева. Разработка составов кордиеритовых электрокерамических материалов на основе местного сырья. // НамДУ илмий ахборотномаси. 2021 йил 12-сон, –С. 92-97.

8. Р.И. Абдуллаева, В.С. Туляганова, Р.Х. Пирматов, С.С. Негматов, Г.Ф. Валиева, Ш.А. Аззамова. Петрографическое исследование фазового состава опытных образцов электрокерамических композиций // Композиционные материалы, -Ташкент. 2022, №2, - С. 3-7.

9. Р.И. Абдуллаева, В.С. Туляганова, С.С.Негматов,Г.Ф.Валиева, Ш.А. Аззамова. Ренгенографическое иследование процесса фазообразования опитных образцов композициионных электрокрамических масс, оббоженных при различных температурах. // Universum: технические науки. Выпуск: 6(99) Москва 2022. Часть 1. –С. 41-45.

10. Р.И. Абдуллаева, В.С. Туляганова, С.С. Негматов, Р.Х. Пирматов, Г.Ф. Валиева. Исследование керамико-технологических и диэлектрических свойств электрокерамических композиционных материалов на основе местногои вторичного сырья // Композиционные материалы, -Ташкент. 2022, №2, - С. 176-178.

TRANSPORT MUHANDISLIGI

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH UCHUN FUNDAMENTAL TADQIQOT OLIB BORISH

Azimov Ibrohimjon Soibjon o‘g‘li
NamMQI, stajor-o‘qituvchisi
Sidiqov Otabek Abdunosir o‘g‘li
NamMQI, stajor-o‘qituvchisi
Mahmudov Jamshidbek Nasimjon o‘g‘li
NamMQI, magistr

Annotatsiya. Maqolada jamoat transportida mavjud bo‘lgan katta hajmdagi amaliy tadqiqotlar, ushbu tadqiqot ishi hajmidagi cheklovlar va mavjud aniq ma'lumotlarning etishmasligi bilan cheklangan. Maqsad ushbu kirish tadkikotini doimiy ravishda kengaytirish. Bu asl tadqiqotdir va yangi boshlang‘ich bosqichida bo‘lsa ham, ushbu tadqiqot infratuzilmani takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlash uchun Toshkent shahar jamoat transporti sohasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Annotation. The article is limited to a large amount of case studies available on public transport, restrictions on the volume of this research work and a lack of available specific information. The goal is to continuously expand this introductory study. This is the original research, and even though it is in its new early stages, this research will be important for the Tashkent City public transport sector to support infrastructure improvements.

Аннотация. Статья ограничена крупномасштабными тематическими исследованиями, доступными в общественном транспорте, ограничениями на объем этой исследовательской работы и отсутствием доступных точных данных. Цель состоит в том, чтобы постоянно расширять это вводное исследование. Это оригинальное исследование, и, хотя оно находится на начальной стадии, это исследование будет иметь важное значение для сектора городского общественного транспорта Ташкента для поддержки улучшения инфраструктуры.

Kalit so‘zlar: *transport, avtobus, metro, jamoat transporti, yo‘nalish, yo‘lovchi oqimi, iqdisod, peresadka.*

Ключевые слова: *транспорт, автобус, метро, общественный транспорт, маршрут, пассажиропоток, экономика, пересадка.*

Key words: *transport, bus, subway, public transport, route, passenger flow, economy, peresadka*

Global iqtisodiyot barqaror rivojlanishga harakat qilishi kerak; Aholi farovonligi uchun iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida muvozanatni saqlash majburiydir. Jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish xavfi qanday bo‘lishidan qat'i nazar, uni amalga oshirmaslik xavfi yuqoriroq, chunki sanoatlashtirish ehtiyojlariga moslashmaslik iqtisodiy barqaror o‘sishni keltirib chiqarmaydi

Shahar jamoat transportini rivojlantirishda so‟rovnoma tashkil etish. Jamoat transporti faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, qatnovlar xavfsizligini yanada oshirish, yo‘lovchilarga yuqori madaniyatli xizmat ko‘rsatish uchun jamoat transportidan foydalanuvchi yo‘lovchilardan so‘rovnomalar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida rivojlanish, ehtiyojlar va ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda ma'lum bir hudud yoki mintaqaning joriy transport tizimini aniqlash uchun transport tadqiqotlari o‘tkaziladi. So‘rovnomalar faktlarni qayd etish va chekka hududlarning asl holatini aniqlash uchun juda muhimdir.

So‘rovlar individual qarashlar va tajribalarning vakilligini aniqlashga yordam beradi. Yaxshi bajarilgandan so‘ng, so‘rovnomalar odamlarning fikrlari va xatti-harakatlari to‘g‘risida muhim sonlarni keltiradi, bugun ulardan tadqiqot ishlarida muhim qarorlar qabul qilishda

foydalanilmoqda. So‘rovnoma - bu respondentdan ma'lumot to‘plashga qaratilgan savollar to‘plami yoki boshqa turtki turlaridan tashkil topgan tadqiqot vositasi. Tadqiqot anketasi odatda yaqin savollar va ochiq savollar aralashmasidan iborat. Ochiq va uzoq muddatli savollar respondentga o‘z fikrlarini batafsil bayon qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqot anketalari 1838 yilda London Statistika Jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan. So‘rovnomaning ba'zi bir misollari quyidagilardir:

Mijozlarni qondirish bo‘yicha so‘rovnoma: Ushbu tadqiqot turi mijoz va tashkilot o‘rtasida o‘zaro aloqada bo‘lgan har qanday vaziyatda ishlatilishi mumkin. Masalan, biror xizmat ko‘rsatilgandan so‘ng mijozlar ehtiyojini qondirish bo‘yicha so‘rov yuborish mumkin. Ma'lumot yig‘ish bo‘yicha so‘rovnomadan olingan ma'lumotlar sifat jihatidan ham, miqdor jihatidan ham bo‘lishi mumkin. So‘rovnoma so‘rov shaklida topshirilishi mumkin yoki bo‘lmasligi mumkin, ammo so‘rovnoma har doim anketadan iborat bo‘ladi.

Transportni rejalashtirish bo‘yicha so‘rovlar: Avtotransport vositalarida o‘tkazilgan so‘rovnomalarda aks ettirilgan ko‘plab so‘rovlar transportni rejalashtirish bo‘yicha tadqiqotlar bo‘lishi mumkin, yoki ular o‘z huquqlari bo‘yicha yoki o‘zgartirilgan nom bilan.

Alohida jamoat transportida o‘tkazilgan so‘rovlar:

- JT bir turidan ikkinchisiga almashinuv bo‘yicha so‘rovnoma va tadqiqotlar: Bular yo‘lovchilar, sayr qiluvchilar, xaridorlar yoki transport vositalarini almashtirish yoki to‘xtash joyi talab qilinadigan yoki bo‘lmasdan tranzitda bo‘lgan odamlarning har qanday kombinatsiyasiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yo‘l almashinuvi moslamasi bo‘ylab sayohat usullarini kuzatib borish.

- Sayohatda JT turini tanlash bo‘yicha so‘rovnoma va tadqiqotlar: Odatda shaxsiy intervyu texnikasi tomonidan o‘tkaziladigan rejimni tanlash va sayohatlar maqsadi bo‘yicha so‘rovlar belgilanadi. Suhbatni qisqa va sodda saqlash ishonchli namuna o‘lchamlari va foydali javoblarni olishning kalitidir.

- Safar maqsadi bo‘yicha so‘rovnoma va tadqiqotlar: Odatda shaxsiy intervyu texnikasi tomonidan o‘tkaziladigan rejimni tanlash va sayohatlar maqsadi bo‘yicha so‘rovlar belgilanadi. Suhbatni qisqa va sodda saqlash ishonchli namuna o‘lchamlari va foydali javoblarning kalitidir.

Toshkent shahar jamoat transportini rivojlantirish va zaruriy strategik vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo Toshkent shahridagi jamoat transporti xizmatining hozirgi darajasini, holatini aniqlash muhimdir. Shuningdek ushbu holat mahsus tadqiqotlarni amalga oshirish va so‘rovnoma olish usulini qo‘llash yordamida aniqlanadi. Tadqiqot doirasida qanday mavzuni qamrab olishidan qat'i nazar transport tadqiqoti yakka yoki kombinatsiyalangan holda bir nechta maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Birinchidan, ular shunchaki ma'lum bir vaqtda har xil transport hodisalariga bog‘liq bo‘lgan mavjud sharoitlarni tasvirlashda qo‘llanilishi mumkin.

Ikkinchidan, ular ma‘lum bir vaqtning o‘zida shartlarning sababini tushuntirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Uchinchidan, so‘rov natijalarini tahlil qilgandan so‘ng bashoratli modellar yaratish zarur bo‘lganda qo‘llanilishi va kelgusidagi transport sharoitlarini prognoz qilish yoki oqibatlarini bashorat qilishda tizimdagi o‘zgarishlarni aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

To‘rtinchidan, tizimdagi o‘zgarishlarning oqibatlarini oldindan aytib berishdan ko‘ra ko‘pincha tizimdagi o‘zgarishlar ta'sirini o‘lchash uchun ularni qo‘llash ko‘proq mos va qulay hisoblanadi. Bunday holda, jamoat transporti tizimidagi o‘zgarishlarning ta'sirini baholash uchun oldin va undan keying kabi so‘rovlardan foydalanish mumkin.

Beshinchidan, oldin va keyin tushunchalarining kengroq mazmuni bu (bu erda anketalar odatda vaqtning ikki nuqtasida o‘tkaziladi) transport tizimi xususiyatlaridagi o‘zgarishlar bo‘yicha muntazam ravishda o‘tkaziladigan monitoring tadqiqotlarining tashkil etilishi yoki xatti-harakatlar uzoq vaqt davomida tashkil etilishi mumkin. (3.1-jadval)

Jahon tajribasidan kelib chiqib joamoat transportining hozirgi holatini baholash maqsadida amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarida yo‘lovchilardan olinadigan anketa va so‘rovnomalar tarkibini va maqsadlarini o‘rganib chiqamiz;



3.1-jadval. So’rovnoma natijalari ustida ishlash sxemasi.

Public Transportation Questionnaire You are invited to participate in this survey to gather information about your perceptions of public transportation in……...city? Thank you in advance for your participation.

1. Have you taken this survey before?

Yes

No

2. From which office location are you completing this survey?

3. What is your age?

Ushbu so‘rovnoma uchun olib borilgan savollar shahar yo‘lovchilarining jamoat transportidan qancha tez tez va qaysi turidan ko‘proq foydalanishi haqida aniq ma‘lumot to‘plash maqsadida tashkil etilgan. Hamda jamoat transportlaridan foydalanishda yo‘l haqi qanday usulda tashkil etilganda yo‘lovchilarga qulay bo‘lgan bo‘lardi singari savollarga yechim topish maqsadida mana shunaqa savollar tuzilgan. Yuqorida keltirilgan so‘rovnoma savollari shu kabi tashkil etiladi va faqat misol tariqasida yana boshqa shakldagi savollardan tuzilgan anketa ko‘rinishidagi so‘rovnomalarni havola etamiz;

TRANSPORT MUHANDISLIGI

Public Transportation User Survey

Please let us know about how you get around north central Connecticut. We are surveying public transportation users to better understand how they get where they need to go and what are the challenges of using public and/or paratransit

1. What is your age?

○ 18 to 24

○ 25 to 34

5. What kind of public transporation is available where you live? (Check all that apply)

☐ Bus

☐ Dial-A-Ride

☐ Door to Door Paratransit

☐ Logisticare/Medcab (Medicaid Transportation)

☐ Taxi

☐ Train

.....

13. If you would like to be contacted or receive updates please provide your contact information.

Name

Address

Telephone

Email Address

Yuqoridagi ushbu savollar to‘plami ma‘lum bir o‘rganilayotgan hududda jamoat transporti tarmog‘ining Ayni paytdagi holati va tarmoqda yana yangi yo‘nalishli qatnovlarni aynan qaysi manzillarga yo‘naltirish kabi masalalarga yechim topish madsadida tashkil etilgan. Odatda bu kabi so‘rovnoma va anketa savollari yo‘lovchilardan qanday ma‘lumot olish zarurligiga qarab tuzib chiqiladi. Ya‘ni ular aniq bir tahliliy hulosaga ega bo‘lish maqsadida tashkil etilgan holda so‘rovnomalar olib boriladi.



3.1-rasm. 2018 JT da so'rovnoma natijasi.

So‘rovda qatnashganlarning 81% jamoat transporti xizmatlaridan foydalanar ekan. Jamoat transportidan foydalanmasliklarini ma‘lum qilgan 19% ishtirokchilarga savol berildi – nima uchun ular jamoat transportidan foydalanishmaydi? 35% jamoat transportida sharoit yo‘qligini sabab qilib ko‘rsatishdi, 30% shaxsiy transport vositasiga ega ekanliklarini, 21% ular yashaydigan shahar/tumanda jamoat transporti yo‘qligini aytishdi. 14% o‘z javoblarini berishdi: ular ichida piyoda yurish ishtiyoqi borligini, jamoat transportida yosh bolalar bilan yurish qiyinligini, ba‘zi ishtirokchilar o‘zlarining nogiron ekanliklari va jamoat transportida nogironlar harakatlanishi uchun sharoit yo‘qligi haqidagi javob variantlari bor edi. (3.1-rasm)

Jamoat transporti turlari orasida ―avtobus yetakchi bo‘lib chiqdi. ―O‘z javobari orasida ishtirokchilar metro, kirakash damaslarni ham aytib o‘tishdi. Yo‘lovchilarning jamoat transportida kunlik o‘rtacha sarflaydigan vaqtlari turlicha, ishtirokchilarning 43% 30 daqiqa vaqt sarflashlarini takidlaganlar. Bundan chiqdi yo‘lovchilarni o‘z manzillariga tezroq va xavfsiz yetkazish juda muhim hisoblanadi. Har bir yo‘lovchining jamoat transportida sarflagan vaqti va bu yo‘qotilayotgan vaqtlar natijasida ularning ish unumdorligida pasayish kuzatilishi mumkin. Ishtirokchilardan ular duch kelgan jamoat transportidagi holat va qulaylikka oid muammolarni sanab o‘tish so‘raldi. Jamoat transportidagi eng ko‘p aytilgan muammolar beshligiga quyidagilar kirdi:

1. Jamoat transportidagi tiqilinch holatlar (yo‘lovchilarni, ayniqsa tig‘iz paytlarda, me‘yordan ortiq mindirilishi), o‘rindiqlarning kamligi va ba‘zi yo‘nalishlarda transport tanqisligi.

2. Jamoat transport qatnovlari orasidagi uzoq vaqt va ularni kutib qolib ketish holatlari.

3. Haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalarining buzilish (quvib o‘tishlar, harakat paytida telefonda gaplashish va hokazo), konduktorlar va haydovchilarning yo‘lovchilar bilan qo‘pol muomalasi.

4. Jamoat transporti salonidagi ifloslik va begona hidlarning bo‘lishi. 5. Ventilyatsiya va konditsionerlar yo‘qligi.

Shuningdek, muammolar qatorida: salonlar, o‘rindiqlar noqulayligi; transport vositalarining eskirganligi; oxirgi bekatgacha bormaydigan haydovchilar; qaytimlar berilmasligi, jamoat tranporti rejimi va grafigi yo‘qligi, nogironlar uchun sharoit yo‘qligi; avtobuslar ichida yo‘lovchilar uchun qo‘l ushlagichlar va suyanchiqlarning yetishmasligi va boshqalar aytib o‘tildi.

Jamoat transportidan yo‘lovchilarning foydalanmasligiga sabab bo‘luvchi omillar haqida ishtirokchilarga savol berildi.



Muammolarning biri Toshkent shahri JT da mavjud sharoitlardan to‘laqonli oqilona foydalana olmaslik bilan bog‘liq bo‘lsa boshqa biri moddiy taminotga borib taqaladi. Umuman olganda harakat intervaliga amal qilish va tig‘iz vaqtlarda yo‘lovchilarning meyorda mindirilishi har ikkala maqsadga xizmat ko‘ratuvchi va JT xizmatidan foydalanuvchi mijozlarning tashabbusi bilan erishilsa bo‘ladi.



Navbatdagi savollarda ishtirokchilardan quyidagilar aniqlandi: (3.3- diagramma)

- Ishtirokchilarning 84.7% ni erkaklar va 15.3% ayollar tashkil etdi.
- Ishtirokchilarning 71.8% ni talabalar, 22.5% ni davlat xodimlari, 3.8% ni oddiy aholi va 1.9% ni imkoniyati cheklangan (nogiron) shaxslar tashkil etdi.
- Yashash manzillari bo‘yicha eng ko‘p ishtirokchilar ulushi 20.1%Mirobod, 17.7% Yashnaobod, 11% Yunusobod va 10.5% Chilonzor tumanlariga to‘g‘ri keldi.



3.4-diagramma. Toshkent shahar JT foydalanilgan tarkibi ulushi.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2024 yil 1 aprel holatiga ko‘ra 4,71 mln kishini tashkil etdi. Bunga ko‘ra 1.894 000 aholi bugungi kunda jamoat transportida sayohatlarni amalga oshirmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Toshkent shahar jamoat transportiga bo‘lgan talabni, yo‘lovchilarning ehtiyojini va aholi fikrini o‘rganishda jamoat transportida so‘rovnoma tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. So‘rovnoma o‘tkazish natijasida shahar ichida qatnovchi avtobuslarda va yerosti metrosida mavjud muammolar aniqlab olindi. O‘rganilgan ma‘lumotlar Toshkent shahar jamoat transportini rivojlanishda amalga oshirilayotgan tadbirlarning muvaffaqqiyatsizliklarida sababchi bo‘lib qolmoqda. Har qanday yangilik yoki rivojlanish joriy holat o‘rganilmasdan amalga oshirilmaydi. Shu sababdan ushbu tadqiqot ishida tahlil qilingan so‘rovnoma natijalari yordamida

Toshkent shahar jmoat transportining joriy holati bo‘yicha rivojlantirish ishlari uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olindi. Toshkent shahar jamoat transportidagi infratuzilmani rivojlantirish nafaqat shahar transport tizimini yaxshilashga balki, mamlakat iqtisodiyotigs ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali ximzat ko‘rsatish sifati yaxshilangan jamoat transporti mamlakatimizga tashrif buyuruvchi mehmonlar soni oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normirzayev A.R., Dadabayev D.R., Egamberdiyev B.S.. Образования и наука XXИ веке. 3 (13) 2021 y, 774-778 pg.
2. Normirzayev A.R., Egamberdiyev B.S., Mekhmonaliyev I. Development of transportation system control system using geoformation technologies. Международный научно-практическом журнал «Экономика и социум» 84 (5) 2021 y.
3. M.Pataxanova. Azimov I, Sh.Yoqubbekov. Shahar jamoat transporti tizimining bugungi kundagi holati. “Fan va Innovatsiya-2022: Rivojlanish va ustuvir yo‘nalishlari” NamMQI-2022. 168-170 betlar.
4. N.Nozimov, I.Azimov, Jamoat transportida elektron to‘lov (ATTO) kartalari orqali to‘lovning joriy etilishi “Fan va Innovatsiya-2022: Rivojlanish va ustuvir yo‘nalishlari” NamMQI-2022. 85-88 betlar.
5. A.Normirzaev A.Ustaboev. Tirbandlik sabablari va uni oldini olish. NTJ NamITI 5 (1) 2020 y. 292-296 betlar.

6. Rustamov I.A., Normirzaev A.R. Влияние автомобильного транспорта на окружающую среду и методы их снижение. Ssues of modern education in the condition of globalization. Collection international scientific conference. Tom 2 . 2017 god. 115-121 st
7. Soliev, H. M., Tukhtabayev, M. A., Xidirov, U. X.,Azimov, I. S. (2022, December). Course stability models of a wide-width tractor unit. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1112, No. 1, p. 012033).
8. Саттивалдиев, Б., Қутлимуратов, Қ. Азимов, И. (2021). Шаҳар Жамоат транспорти фаолиятини бошқаришда интеллектуал транспорт тизимлардан фойдаланиш. Scientific progress, 2(1), 1144-1148.
9. Назаров, А. А., & Устабоев, А. Р. (2020). Пути оптимизации городского пассажирского транспорта в узбекистане. In Актуальные Вопросы Совершенствования Технической Эксплуатации Мобильной Техники (pp. 231-236).
10. Тўхтабаев М. А., Мамиров У. Х., Турғунов З. Х. Жамоат транспортида йўловчи ташиш самарадорлиги //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 2. – С. 62-67.
11. Назаров, А., & Устабоев, А. (2021). Шаҳар жамоат транспортида йўловчиларга транспорт хизмати кўрсатишни баҳолаш мезонлари. Научный журнал транспортных средств и дорог, 1(2), 25-28
12. Azimov I, Ataxanov X, Ustaboyev A Boshqariluvchan chorrahalarda jamoat transporti uchun ustuvorlikni ta'minlovchi uslublarning tahlili. Xalqaro texnik anjuman. T.2023 [285-291].
13. Солиев Х. и др. Организация скоростных пассажирских маршрутов //Естественнонаучный журнал «Точная наука. – 2022. – №. 129. – С. 9-11.
14. Тўхтабаев М. А., Мамиров У. Х., Турғунов З. Х. Жамоат транспортида йўловчи ташиш самарадорлиги //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 2. – С. 62-67.
15. To'Xtaboev M. A., Mamirov U. X. Shaharda avtomobilda tashishda harakat muntazamligini oshirish (namangan shahri misolida) //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 101-108.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СИЛЫ ПРИЖАТИЯ БОТВЫ ЛОПАСТЯМИ БОТВОПРИЖИМНОГО БИТЕРА

Пайзиев Г.К
Наманганский инженерно-строительный институт, к.т.н., доцент

Аннотация. В статье на основе проведенных теоретических исследований приведены взаимодействия лопастей лопастного битера с прутками ботвоудаляющего транспортера выведены аналитические зависимости для определения длины лопасти битера, силы прижатия ботвы к пруткам ботвоудаляющего транспортера.

Ключевые слова: ботва, лопаст, битер, ботвоудаляющий транспортер, пруток, силы прижатия, аналитические зависимости, транспортер, длина лопасти.

Аннотация. Мақолада лопастли битер лопастарини палак ажратувчи транспортер чивиқлари билан ўзаро таъсирлашиши бўйича ўтказилган назарий тадқиқотлар асосида битер лопастини узунлигини, палакни палак ажратувчи транспортер чивиқларига қисиш кучини аниқлаш учун аналитик боғлиқликлар келтирилган.

Калит сўзлар: палак, лопаст, битер, палак ажратувчи транспортер, чивиқ, қисиш кучи, аналитик боғлиқликлар, транспортер, лопаст узунлиги.

Abstract. In the article, on the basis of the theoretical studies carried out, the interaction of the blades of the bladed beater with the bars of the haulm-removing conveyor is given, analytical dependencies are derived to determine the length of the beater blade, the force of pressing the tops to the bars of the haulm-removing conveyor.

Key words: tops, blade, beater, top removal conveyor, rod, pressing force, analytical dependencies, conveyor, blade length.

Для обеспечения надежного прижатия ботвы при отрыве клубней она должна прижиматься лопастью битера как минимум к двум пруткам (рис.1). Для этого длина $l_л$ лопасти битера должна удовлетворять следующее условие

$$l_л > L + d, \quad (1)$$

где L – межосевое расстояние прутков транспортирующего полотна, мм; d – диаметр прутка, мм.

Шаг между прутками редкопрутковых ботвоудоляющих устройств существующих картофелеуборочных комбайнов для руткового полотна на металлических дорожках равен - 162,2 мм, а для руткового полотна на прорезиненных ремнях – 172 мм, а диаметр прутков - 16 мм. Подставляя эти значения L и d в (1), получим, что длина лопасти битера должна быть не менее 188 мм. Для дальнейшего рассмотрения $l_л$ принимаем 250 мм. С учетом этого и диаметра вала, а также элементов крепления лопастей к нему диаметр битера будет $D_б$ = 570 мм.

Ширину $B_л$ лопастей битера принимаем равной ширине транспортирующего полотна, т.е 1000 мм

